

BALIQ YETISHTIRISHGA IXTISOSLASHTIRILGAN XO‘JALIKLARNI TASHKIL ETISHDA BOZOR IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Vazirov Azamat Yoqubjonovich

Ipoteka bank ATIB Namangan viloyat filiali xodim.

Keyingi yillarda Respublikamiz hukumati tomomidan oziq-ovqat muammolarni hal qilish maqsadida baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada xorij tajribasini o‘rganib soxaga tadbiiq etish kichik biznes subektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tomonidan baliq mahsulotlari turlarini ko‘paytirish, eksport salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan 13.01.2022 yildagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolandi. Hujjat O‘zAda e’lon qilingan.

Hujjat bilan Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanida tashkil etilgan baliqchilik klasterining aholi xonadonlari bilan kooperatsiya asosida ishlash tajribasini har bir viloyatda joriy etish nazarda tutilgan.

Kooperatsiya asosida xonadonlarda baliq yetishtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

baliqchilik xo‘jaliklari xonadon egalarini baliq yetishtirish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etadi, ularga baliq yetishtirish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, baliq chavoqlari, omuxta yem, mineral o‘g‘itlarni yetkazib beradi hamda ular tomonidan yetishtirilgan baliqni kelishilgan narxlarda sotib oladi;

xonadon egalari o‘z xonadonlarida baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlardan foydalangan holda intensiv usulda yetishtirilgan baliqlarni kelishilgan narxlarda ularga sotadi.

Xitoyda baliqchilik sohasida oilaviy pudrat turi keng tarqalgan. Bunda aholi o'z havzalarida bir necha usullarda baliq yetishtiradi. Bunday yondashuvni o'zimizning mintaqada ham qo'llash mumkin.

Xitoy, Yaponii, Buyuk Britaniya va Germaniya olimlari Xitoydagi Xenan provinsiyasi Szyaxu hududida neolit manzilgohlari qazishmalari chog'ida topilgan zog'orabaliqning tish va suyaklarini o'rganishdi. Ular Xitoyning qadimgi akvamadaniyati taxminan 8000 yoshda degan xulosaga kelishdi.

Oddiy zog'orabaliq qoldiqlarining yoshga oid tahliliga ko'ra, manzilgohdagi qadimgi aholi tutgan baliqlarining bir qismini yeyishgan, qolganini esa ko'paytirish uchun hovuzlarga qo'yib yuborishgan.

Bunday xulosaga kelishga baliq qoldiqlarining turiga qarab tahlil qilish sabab bo'lgan. Janubi-sharqiy Osiyoda shunday hovuzlarda asosan tovonbaliq ovlangan. Biroq Szyaxuda suyaklarning 75 foizi zog'orabaliqqa tegishli.

Taxminlarga ko'ra, ushbu manzilgohda zog'orabaliq yetishtirish miloddan avvalgi 6200 — 5700-yillarda boshlangan.

Bunday akvamadaniyat ko'pincha sholikorlik bilan bog'liq bo'lgan — baliq sholi dalalarida yetishtirilgan.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida baliqchilik tarmoqning ulushi ancha pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 2000 yilda AQSHda bu ko'rsatkich 1,8 % ni tashkil qilgan bo'lsa (1960 yilda 20 % bo'lgan), Evropa Ittifoqi davlatlarida o'rtacha 3,5 % ni tashkil qilgan. Bu mamlakatlar agrar iqtisodiyotining mustahkam rivojlanishini ta'minlagan agrar siyosat shartlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- agrar iqtisodiyotda rivojlangan ASM tiziminig mavjudligi;
- ishlab chiqarishning fermerlik tizimida tashkil qilinganligi;
- davlat tomonidan tartibga solishning mukammal tizimi ishlab chiqilganligi;
- baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarishiga ilmiy-texnika yutuqlarining tijorat asosida joriy qilish va ilmiy ishlarni mukammal tashkil qilishning yuqori natijaviyligi.

Rivojlangan mamalakatlar iqtisodiy rivojlanishiga va baliqchilik xo'jaligi tarmoqning ham bozor qonunlari asosida takomil rivojlanishiga zamonaviy yirik hududiy savdo bloklarining shakllanishi va rivojlanishi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

AQSH iqtisodiyotida baliqchilik xo'jaligi muhim o'rin tutadigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. AQSH qishloq xo'jaligi ham boshqa rivojlangan mamlakatlar singari rivojlangan agrosanoat tizimiga ega. Bu tizim mamlakatga 1960 yillardan boshlab rivojlantirila boshlagan. Mamlakat ASM tashkiliy tarkibi 3 ta sohadan tarkib topgan.

Birinchi sohaga qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan va moddiy-texnik xizmat ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi (traktorsozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ozuqa sanoati, hayvonlar farmatsevtikasi sanoati, urug'chilik sanoati).

Ikkinchi sohaga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'zi kiradi.

Uchinchi sohaga esa funktsiyasi qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchiga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar, ya'ni, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, etkazib berish va sotish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar kiritiladi. Bu tarmoqlar sirasiga oziq-ovqat sanoati, tara va ombor xo'jaligi, transport, oziq-ovqat mahsulotlarini ulgurji va chakana savdo qilish, umumiy ovqatlanish kabilarni kiritish mumkin.

AQSH baliqchilik xo'jaligida davlatning ta'siri juda kattadir va buni ular oziq-ovqat mahsulotlariga talabni shakllantirish, ichki agrar bozorni jahon bozori bilan mustahkam aloqadaligi, shuningdek, juda katta miqdordagi o'rta va kichik tovar ishlab chiqaruvchilarning mavjudligi bilan izohlashadi. Mamlakat agrar siyosatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

Baliq ishlab chiqarish xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida ulushi ancha past bo'lsada, davlat tomonidan unga ko'rsatilayotgan yordam hajmi ancha kattadir. Umuman

mamlakat bo'yicha 50 % ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bahosi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.¹

Xulosa qilib aytganda, baliq va boshqa dengiz mahsulotlarining inson salomatligi uchun zarur bo'lgan oqsil va boshqa biologik faol birikmalarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Hozir jahonda oqsilga bo'lgan ehtiyojning 25% ini babaliqchilik bermoqda. Baliq ovlash hajmi so'nggi yillarda 110 mln.t ni tashkil qilmoqda. Baliq ovlash bilan amalda suv havzalariga ega bo'lgan jahonning deyarli barcha davlatlarida shugullanishadi. Jahon bo'yicha aholi jon bosniga o'rtacha 17-18 kg baliq mahsuloti iste'mol qilingani holda Yaponiyada bu ko'rsatkich 40-50 kg ni, Nepalda 0,2 kg ni tashkil qiladi. Jami 15 mln jahon aholisi hozirgi vaqtda baliqchilik bilan shug'ullanadi. Ovlanayotgan baliq mahsulotlarining 1/2 qismi Yaponiya, Xitoy, AQSH, Chili, Peru va Rossiya davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2022
2. Salomov T. Hamdamov Q.S. Tursunxo'jayev T.L., To'raxo'jayev T.I., Hakomov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M., Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. 128 b.
3. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ "RAM-S", - 2007. 367 b.
4. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 160 b.
5. Salimov T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jayev T. L., To'xtayev T.I., Xakimov R.X., O'roqov N.L., Aripov I.M. Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 128 b

¹ Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2022